

**O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025 yil II yarim yillik ish
REJASI**



t/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalg oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Normativ-huquqiy asosi	Maqсад (kutlayotgan natija)	Mas'ul ijrochilar
1.	2025-yil II choragida shakllangan pul-kredit siyosati sharoitlari tahlili hamda Markaziy bank asosiy stavkasini ko'rib chiqish to'g'risida.	1. Joriy makroiqtisodiy vaziyat, shakllangan pul-kredit sharoitlarini tahlil qilish va Markaziy bankning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha o'rta muddatli prognozlarini yangilash. 2. Markaziy bank Kredit qo'mitasiga pul-kredit siyosati sharoitlari, makroiqtisodiy prognozlar va asosiy stavkani ko'rib chiqish bo'yicha takliflarni kiritish. 3. Markaziy bank boshqaruvi yig'ilishida shakllangan pul-kredit siyosati sharoitlari, makroiqtisodiy prognozlar va asosiy stavka bo'yicha takliflarni taqdim etish.	2025-yil 24-iyul	"O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrdaqi "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5877-sonli farmoni.	Iqtisodiyotda monetar omillar ta'sirlarini minimallashtirish orqali narxlar barqarorligini ta'minlash, 2025-yilda inflyatsiyani prognoz ko'rsatkichlarigacha va kelgusi yillarda target darajasigacha pasaytirish.	A.M. Olimov S.S. Inog'ramov
2.	2025-yil yanvar-avgustdagi pul-kredit sharoitlari tahlili hamda Markaziy bank asosiy stavkasini ko'rib chiqish to'g'risida.		2025-yil 11-sentyabr			
3.	2025-yil III choragida pul-kredit siyosati sharoitlari tahlili hamda Markaziy bank asosiy stavkasini ko'rib chiqish to'g'risida.		2025 yil 23-oktyabr			
4.	2025-yil yanvar-noyabrdaqi pul-kredit sharoitlari tahlili hamda Markaziy bank asosiy stavkasini ko'rib chiqish to'g'risida.		2025-yil 11-dekabr			